

JALAQUDUQ KICHIK DIALEKTAL ZONASINING O'RGANILISH TARIXI.

*Andijon davlat universiteti 2-kurs
magistranti Axmadjonova Irodaxon*

Annotatsiya.

Mazkur maqolada o'zbek tilining Andijon viloyatida joylashgan Jalaquduq kichik dialektal zonasining o'rganilish tarixi yoritiladi. Tadqiqotda ushbu hudud shevasini o'rganishga oid dastlabki kuzatuvlar, XX asr va zamonaviy dialektolog olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Jalaquduq kichik dialektal zonasining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari haqida bildirilgan fikrlar tizimlashtiriladi. Maqolada mavjud ilmiy manbalar qiyosiy-tahliliy usul asosida ko'rib chiqilib, hudud shevasining o'zbek dialektologiyasidagi o'рни aniqlanadi. Tadqiqot natijalari Jalaquduq shevasini keyingi lingvistik tadqiq etish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: til, sheva, dialektal zona, fonetik xususiyatlar, morfologik xususiyatlar, sintaktik xususiyatlar

Til — xalqning buyuk boyligi, uning tarixiy xotirasi, madaniyati va o'zligining ifodasidir. Har bir millatning umumxalq tili murakkab jarayonlar mahsuli bo'lib, adabiy til, shevalar va dialektlardan iborat yaxlit tizimni tashkil etadi. Shu jihatdan qaraganda, o'zbek tilining ham shakllanishida turli hududiy sheva va dialektalarning o'рни beqiyosdir. Ularning orasida Farg'ona vodiysi shevalari alohida mavqega ega, chunki bu hudud qadimdan madaniy aloqalarning markazi bo'lib kelgan.

Vodiyning turli burchaklarida shakllangan shevalar nafaqat fonetik va leksik jihatdan, balki ijtimoiy-ma'naviy mazmun jihatidan ham katta ahamiyatga ega.

Ayniqsa, Andijon viloyati hududida joylashgan Jalaquduq tumani kichik dialektal zona sifatida tilshunoslik nuqtayi nazaridan diqqatga sazovor hisoblanadi. Chunki bu hudud aholisi nutqida qadimgi turkiy qatlam unsurlari hamon yashab kelmoqda, shu bilan birga, qo'shni hududlardan kirib kelgan yangicha unsurlar ham faol qo'llanmoqda. Natijada Jalaquduq shevasi nafaqat tilshunoslar, balki tarixchi va etnograflar uchun ham qimmatli manba vazifasini bajaradi. Shu jihatdan ushbu hudud shevasini o'rganish alohida ahamiyatga molik.

O'zbek dialektologiyasi shakllanishi XIX asr oxiri va XX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab rus sharqshunoslari va turkologlari tomonidan to'plangan ko'plab materiallar keyinchalik mahalliy olimlar tomonidan chuqur o'rganildi. Shu jarayonda Farg'ona vodiysi shevalari ham diqqat markazida bo'ldi. Chunki vodiyning geografik o'rni, tabiiy sharoiti, etnik tarkibining xilma-xilligi va qadimiy tarixiy jarayonlari bu yerda tilning o'ziga xos shakllarini yuzaga keltirgan.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zbek dialektologiyasi mustaqil ilmiy soha sifatida shakllanib o'zbek tilining shevalari alohida o'rganila boshlandi va olimlar tomonidan turlicha tasniflar qilindi. Ana shu jarayonlarda Jalaquduq hududiga oid ayrim ma'lumotlar ham ilmiy adabiyotlarda uchraydi, biroq ular ko'pincha umumiy Farg'ona vodiysi shevalari doirasida yoritilgan. Demakki, bu hududning aniq va tizimli o'rganilishi hali to'liq amalga oshmagan ilmiy vazifalardan biri sifatida turibdi.

Jalaquduq shevasining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirganda, eng avvalo, fonetik jihatlardagi ayrim tafovutlarni ko'rsatish mumkin. Masalan, ba'zi undoshlarning talaffuzdagi farqlari, qo'shni shevalarda uchramaydigan ayrim fonetik hodisalarning mavjudligi hududning tili uchun xarakterlidir. Shuningdek, lug'aviy qatlamda ham o'ziga xoslik yaqqol seziladi. Hududning shevasida adabiy tilda uchramaydigan so'zlarning qo'llanishi, mahalliy xo'jalik va madaniy hayot bilan bog'liq terminlarning ko'pligi, qo'shni hududlardan kirib kelgan leksik birliklarning uyg'unlashuvi Jalaquduq shevasining boyligidan dalolat beradi.

Sheva va dialektlarning o'rganilishi faqat tilshunoslik uchun emas, balki xalqning tarixiy taraqqiyotini yoritish uchun ham muhimdir. Chunki shevalarda saqlanib qolgan qadimiy unsurlar millatning o'tmishidan, urf-odatlaridan, madaniy munosabatlaridan dalolat beradi. Shu boisdan ham Jalaquduq kichik dialektal zonasining o'rganilishi o'zbek tilshunosligida dolzarb masala bo'lib kelmoqda va kelajakda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

O'zbek dialektologiyasi fanining shakllanishida Farg'ona vodiysi alohida mavqega ega bo'lganini ta'kidlash lozim. Sababi, vodiyni tabiiy-geografik sharoiti, ko'hna shaharlarining mavjudligi, qadimiy dehqonchilik va hunarmandchilik markazi sifatida tarixiy ahamiyat kasb etgani til taraqqiyotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Andijon viloyatida joylashgan Jalaquduq tumani ham bu jarayonlarning bevosita ishtirokchisi sifatida o'rin olgan hududlardan biridir.

XX asrning boshlarida o'zbek shevalarining dastlabki o'rganish ishlarini rus olimlari amalga oshirdi. Tadqiqotlarda Farg'ona vodiysi shevalari haqida ba'zi kuzatuvlar berilgan bo'lsa-da, Jalaquduq singari kichik dialektal zonalar e'tibordan chetda qolgan. Negaki, dastlabki maqsad o'zbek tili shevalarini yirik guruhlariga ajratish, ularning asoslarini aniqlash edi. Natijada vodiyni ko'plab hududlari umumiy tasnif ichida birlashtirib yuborilgan.

Shunga qaramay, o'zbek dialektologiyasining keyingi bosqichlarida mahalliy shevalarning ayrim xususiyatlariga ham alohida e'tibor berila boshlandi. Masalan, Sh. Shoabdurahmonovning tadqiqotlarida Farg'ona vodiysi shevalarining fonetik va morfologik xususiyatlari keng yoritilib, ularning ayrim hududlarda o'ziga xos shakllari mavjudligi qayd etilgan. Bu esa bugungi kunda Jalaquduq singari kichik dialektal zonalarining ham tilida bu kabi xususiyatlar borligini qaysidir ma'noda ko'rsatib turibdi. Ushbu hudud shevasini o'rganishda to'plangan materiallar faqat tilshunoslar uchun emas, balki tarixchi va etnograflar uchun ham qimmatlidir. Masalan, ayrim so'zlarning semantik o'zgarishi yoki ma'lum terminlarning faqat shu hududda qo'llanilishi madaniy va ijtimoiy hayot xususiyatlarini ham ochib beradi.

Bugungi kunda Jalaquduq kichik dialektal zonasini chuqur o'rganish — o'zbek dialektologiyasining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Chunki o'zbek tilining adabiy me'yorlari tobora mustahkamlanib borayotgan bir davrda shevalarni hujjatlashtirib olish, ularni yozma manbalarda qayd etish alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Aks holda, ko'plab shevaga oid materiallar yo'qolib ketishi mumkin.

Bundan tashqari, Jalaquduq shevasida xo'jalik, dehqonchilik va kundalik turmush bilan bog'liq ko'plab maxsus so'zlar mavjud. Masalan, mardak(dumbilning makkadan ajrab qolgan qismi), hunon(o'rama), bolish(yostiq), qizilcha(lavlagi), chini(kosa), paqir(chelak), jom(tog'ora), siydom(gulsiz, bir tekisda, bir xil). Bu so'zlarning ko'pi boshqa hududlarda ham ishlatiladi, biroq Jalaquduqda ularning ma'nosi biroz toraygan yoki kengaygan bo'lishi mumkin.

Shevada qo'shni hududlardan kirib kelgan so'zlar ham uchraydi. Masalan, qo'shni Qirg'iziston Respublikasi va Andijonning tumanlaridan o'zlashgan ba'zi so'zlar Jalaquduq nutqiga tezda singib ketgan. Bunday o'zlashmalar odatda savdo, bozor, hunarmandchilik va ijtimoiy aloqalar orqali kirib kelgan. Masalan, suv qog'oz(plyonka), odog'(oxir), niq(juda ham to'la), jazlamoq(qovurmoq)... Tilshunoslar bu hodisani shevalarning tabiiy rivojlanish xususiyati sifatida baholaydilar ¹.

Umuman olganda, Jalaquduq kichik dialektal zonasining sheva xususiyatlari bu hududning tarixiy va madaniy hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Qadimiy unsurlar — xalqning uzoq o'tmishini, yangi o'zlashmalar esa uning zamonaviy rivojlanishini ifodalaydi. Shu bois, bu shevani o'rganish orqali nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ma'lumotlar olish mumkin.

Shevalarning morfologik va sintaktik xususiyatlari ularning eng muhim belgilaridan biridir. Fonetik va leksik qatlam singari grammatik tuzilish ham tilning tarixiy rivojini, mahalliy nutqiy an'analarning shakllanishini ko'rsatadi. Jalaquduq

¹ Qodirov B. O'zbek xalq shevalarida leksik qatlam. Toshkent: Fan, 2001.

kichik dialektal zonasida ham grammatik qurilish o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi.

Морфологик xususiyatlar:

Avvalo, fe'llarning qo'llanilishidagi ayrim farqlarni ko'rib chiqamiz. Masalan, adabiy tildagi qilayotgan edim, yeyman, so'ragan edim, qilgan edi, yopmaslik kerak edi, ekayotgan edim kabi fe'llar Jalaquduq shevasida qilyaptirodim, yiyman, so'ro'dim, qig'andi, yopmash keregidi, ekyato'dim tarzida ishlatiladi.

Otga xos sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarda ham yuqoridagi kabi holatlar kuzatiladi. Masalan, uyni o'rniga uydi, akamning uyi- akami uyi,

Синтактик xususiyatlar

Sintaksis sohasida esa gap tuzilishida sodda va ixchamlik kuzatiladi. Jalaquduq aholisi nutqida qisqa jumlar, ko'pincha gapning kesimi oldinga surilgan shakllar tez-tez uchraydi: Keldi u kecha; Ketdi do'konga; Boradi bog'ga. Bu holat xalq og'zaki nutqiga xos bo'lib, so'zlashuv jarayonida qulaylik yaratadi.

Shuningdek, qo'shma gaplarda bog'lovchilarsiz birikish hollari ko'proq uchraydi: Men bordim, u keldi, ular kutdi. Adabiy tilda bu kabi hollarda odatda bog'lovchi ishlatilsa, Jalaquduq hududi shevasida ular ortiqcha hisoblanadi.

Ba'zan so'z tartibida ham o'ziga xosliklar kuzatiladi. Masalan: O'qigan qiz u; Ko'rmaganman men uni. Bu holatlar xalq nutqining jonli ifodasi bo'lib, sintaktik erkinlikni ko'rsatadi.

Ko'rinadiki, Jalaquduq kichik dialektal zonasining grammatik xususiyatlari o'zgacha. Morfologiyada qo'shimchalar qo'llasahda xilma-xillik, sintaksisda esa ixchamlik va erkinlik ustunlik qiladi. Bu xususiyatlar uni boshqa vodiylar shevalaridan ham ajratib turadi. Bugungi globalizatsiya sharoitida bu kabi kichik hududiy shevalar tez yo'qolib ketish xavfi ostida qolmoqda. Demak, ularni bugun hujjatlashtirib olish ertangi avlod uchun tarixiy va madaniy boylik sifatida xizmat qiladi.

Jalaquduq kichik dialektal zonasining nutqiy manzarasi hozirda juda murakkab va ko'p qatlamli ko'rinishga ega. Avvalo, bu hudud aholisi o'zbek adabiy tilidan faol foydalanadi. Maktab, oliy ta'lim, matbuot va televideniye orqali adabiy me'yorlar mustahkam o'rin egallagan. Shunga qaramay, mahalliy sheva kundalik muloqotda hanuz yetakchi o'rin tutmoqda. Ayniqsa, oilaviy suhbatlarda, bozor muhitida, qishloq yig'inlarida Jalaquduq shevasi faol ishlatiladi.

Mahalliy shevaning eng muhim xususiyati shundaki, u avlodidan-avlodga og'zaki tarzda o'tib kelmoqda. Yoshlarda ham mahalliy nutq elementlari keng qo'llaniladi, biroq ularning nutqida adabiy tilning ta'siri kuchliroq seziladi. Keksalarda esa shevaning to'liq, sof shakllari ko'proq uchraydi. Demak, vaqt o'tishi bilan shevaning adabiy til bilan uyg'unlashuvi kuchayib bormoqda.

Shuningdek, migratsiya jarayoni ham shevaga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Mehnat migratsiyasi tufayli ko'plab jalaquduqliklar Rossiya, Qozog'iston va boshqa hududlarda yashab, qaytib kelmoqda. Ularning nutqida rus tili elementlari, qo'shni Qirg'iziston yoki boshqa til shevalaridan kirib kelgan unsurlar sezilib turadi. Bu esa shevaning ichki tizimida yangi o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.

Qolaversa, hudud dialektini o'rganishda bir qancha muammolar ham mavjud. Avvalo, bu hudud bo'yicha maxsus monografik tadqiqot hali yozilmagan. Ayrim maqolalarda yoki umumiy asarlarda qisqa kuzatuvlar berilgan bo'lsa-da, ular to'liq manzara yaratish uchun yetarli emas.

Ikkinchi muammo — yozma manbalarning kamligi. Jalaquduq shevasi asosan og'zaki shaklda yashab kelmoqda, yozma namunalar esa juda oz. Shevani yozma manbalarda qayd etish esa til tarixini o'rganish uchun muhim ahamiyatga ega.

Uchinchi muammo — yoshlar orasida shevaning asta-sekin qisqarib borishi. Garchi ular hali ham mahalliy nutqni qo'llayotgan bo'lsalar-da, adabiy tilning kuchli ta'siri ostida ba'zi qadimiy unsurlar tez yo'qolib bormoqda. Agar ular hozir qayd etib olinmasa, bir necha o'n yillardan keyin ko'plab so'z va shakllar butunlay iste'moldan chiqib ketishi mumkin.

Xulosa

Bugungi kunda Jalaquduq kichik dialektal zonasining holati o'zgarish va uyg'unlashuv jarayonida. Adabiy tilning ta'siri, migratsiya oqibatlari, yoshlarning til odatlari shevaning zamonaviy ko'rinishini belgilab bermoqda. Shu sababli, bu hududning hozirgi davr shevasini ilmiy tadqiq qilish, fonetik yozuvlar, lug'atlar, matn to'plamlari yaratish o'zbek shevashunosligi, xususan areal lingvistikaga qo'shilgan kichik xissa bo'lar edi nazarimda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev F. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Fan, 1964.
2. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
3. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek shevalari va ularning tasnifi. – Toshkent: Fan, 1971.
4. Isayev M. Farg'ona vodiysi o'zbek shevalari. – Toshkent: Fan, 1989.
5. Yusupova D. O'zbek tilining hududiy shevalari va ularning lingvistik xususiyatlari. – Toshkent: Universitet, 2005.
6. Mirzayev I. O'zbek dialektologiyasining dolzarb masalalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.